

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
DAVLAT TEST MARKAZI**

**OLIV TA‘LIM MUASSASALARIGI  
KIRISH UCHUN BERILADIGAN  
IMTIYOZLAR**

**Ma‘lumotnoma**

*(2022-2023-o‘quv yili uchun)*

**Toshkent-2022**

Ma'lumotnomada oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar va ularning qo'llanishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ma'lumotnoma oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish istagini bildirgan abituriyentlarga mo'ljallangan.

Abituriyentlarga oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun imtiyozlar hukumatning tegishli qarorlari (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari*) asosida berilishi mumkin.

Davlat test markazi ijrochi tashkilot bo'lib, amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida abituriyentlarga imtiyozlarni qo'llaydi. Qonunchilikda ko'rsatilmagan holatlarda esa hech kimga hech qanday qo'shimcha imtiyoz berish vakolatiga ega emas.

Keltirilgan ma'lumotlar 2022-2023-o'quv yili uchun o'rinli bo'lib, hukumatning tegishli qarorlariga o'zgartirishlar kiritilgan yoki o'z kuchini yo'qotgan taqdirda imtiyozlarning qo'llanishi o'zgarishi mumkin.

#### ***Tuzuvchi:***

**J.T.Odilov** – Davlat test markazi bosh mutaxassisi.

#### ***Taqrizchi:***

**G.R.Madrahimova** – Davlat test markazi yuridik byuro boshlig'i.

## MUNDARIJA

### I. Imtihonsiz qo‘shimcha davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish uchun asos bo‘luvchi imtiyozlar

Harbiy qism qo‘mondonligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tavsianomasiga ega abituriyentlar .....	5
Harbiy xizmatchilarning farzandlari.....	6
Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari.....	7
Bojxona organlari xodimlarining farzandlari .....	8
Respublika va xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari .....	9
Respublika va xalqaro shaxmat va shashka turnirlari g‘oliblari.....	10
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari.....	11
“Nihol” mukofoti sohiblari.....	12
Madaniyat vazirligining respublika ko‘rik-tanlovlari g‘oliblari.....	13
“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari.....	14
“Tarbiyachi” respublika tanlovi g‘oliblari.....	15
“Hamshira” respublika tanlovi g‘oliblari .....	16
O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolari.....	17
Xalqaro olimpiadalar g‘oliblari .....	18
Prezident maktablari bitiruvchilari .....	19

### II. Imtihonsiz bazaviy to‘lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish uchun asos bo‘luvchi imtiyozlar

Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilari .....	20
Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining bitiruvchilari .....	21
“Zakovat” intellektual o‘yini g‘oliblari .....	22
Profilaktika inspektorlari .....	23

### III. Tegishli fan bo‘yicha imtihondan ozod etilib, ma‘lum miqdorda ball berishga asos bo‘luvchi imtiyozlar

Respublika fan olimpiadalari g‘oliblari.....	24
--	----

Chet tili sertifikatiga ega abituriyentlar .....	25
Musiqqa, raqs, teatr, folklor, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha respublika va xalqaro tanlovlar g'oliblari.....	26
“Bolalar sport o'yinlari”ning respublika bosqichi g'oliblari .....	27
Umumta'lim fanlaridan milliy sertifikatga ega abituriyentlar .....	28

#### **IV. To'plangan ballga nisbatan qo'shimcha ball berish uchun asos bo'luvchi imtiyozlar**

“Temurbeklar maktabi” bitiruvchilari .....	29
Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilari .....	30

#### **V. Qo'shimcha kvota doirasida tanlovda ishtirok etish uchun asos bo'luvchi imtiyozlar**

Olis cho'l hududlari aholisi .....	31
Bobotog' hududidagi yoshlar .....	32
Harbiy xizmatchilarning farzandlari.....	33
Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari.....	34
Bojxona organlari xodimlarining farzandlari .....	35
Nogironligi bo'lgan shaxslar .....	36
Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar .....	37
Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar.....	38
Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari.....	39
Harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega abituriyentlar .....	40
O'rmonchilar va ularning farzandlari .....	41
Besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlar .....	42
Oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar .....	43

#### **Qo'shimcha imtiyozlar**

Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari .....	44
Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar .....	45
Prezident grantiga da'vogar abituriyentlar .....	46
Hokim yordamchilari.....	47

# I. IMTIHONSIZ QO‘SHIMCHA DAVLAT GRANTI ASOSIDA TALABALIKKA TAVSIYA ETISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

## Harbiy qism qo‘mondonligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga ega abituriyentlar

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 17-noyabrdagi **PQ-3394-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qism qo‘mondonligi (rahbariyati) va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga asosan har bir harbiy qismdan bir nafardan yuqori natijalarga erishgan yosh harbiy xizmatchi qo‘shimcha davlat granti asosida oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

## Harbiy xizmatchilarning farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14-maydagi **PQ-3726-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi **462-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralarning xodimlari farzandlarining kvota asosida respublika oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan hamda harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida yaradorlik, kontuziya, shikastlanish yoki kasalliklar oqibatida nogiron bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning harbiy xizmatchilari va Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida oliy ta‘lim muassasalariga kirishda belgilangan qabul ko‘rsatkichlaridan tashqari tanlovsiz davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Milliy gvardiya.

## Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 26-fevraldagi **PQ-4212-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi **375-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlarining davlat oliy ta‘lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo‘mitasining oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga oliy ta‘lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o‘qishga kirish imtiyozi beriladi (*tavsiyanoma asosida*).

Tavsiyanoma **kunduzgi** yoki **sirtqi** ta‘lim shakliga bir marta kirish uchun uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga beriladi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Ichki ishlar vazirligi.

## Bojxona organlari xodimlarining farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 27-apreldagi **PF-122-son** Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi **PQ-3665-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Xizmat majburiyatini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan, shuningdek, xizmat majburiyatini bajarishda olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan bojxona organlari xodimlarining farzandlari Davlat bojxona qo‘mitasi raisining tavsiyanomasi asosida belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriyatining **kunduzgi** ta‘lim shakliga tanlovsiz qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Shuningdek, DBQ raisi xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan bojxona organlari xodimlarining to‘lov-kontrakt asosida ta‘lim olayotgan farzandlariga – qolgan o‘quv davri to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdorining to‘liq hajmini, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan bojxona organlari xodimlarining to‘lov-kontrakt asosida ta‘lim olayotgan farzandlariga – to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdorining ellik foizi miqdorini Davlat bojxona qo‘mitasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan to‘lab berish huquqiga ega.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Davlat bojxona qo‘mitasi.



## Respublika va xalqaro sport musobaqalari g'oliblari

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan tasdiqlangan “Xalqaro va respublika tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida” nizom.

**Qo'llanishi:** Kattalar va yoshlar o'rtasida Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to'rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g'olib va sovrindor (1-3 o'rin) bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlar qabul qilish boshlanguniga qadar oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga qo'shimcha davlat granti asosida kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim shakllariga imtihon sinovlarisiz qabul qilinadilar.

Respublika (1-o'rin) va xalqaro tanlovlar va sport musobaqalarining (*Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to'rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g'olib va sovrindor (1-3 o'rin) bo'lgan*) jamoa turlari g'oliblari o'z komandalari tarkibidan - akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari bitiruvchilaridan oliy ta'lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilish uchun uch nomzodni belgilaydilar.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Sportni rivojlantirish vazirligi.

## **Respublika va xalqaro shaxmat va shashka turnirlari g'oliblari**

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan tasdiqlangan “Xalqaro va respublika tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida” nizom.

**Qo'llanishi:** Respublika (1-o'rin) va xalqaro (1-5-o'rinlar) shaxmat va shashka turnirlarida g'olib chiqqan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari bitiruvchilari pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilinadilar.

Bunda ularni oliy ta'lim muassasasiga imtiyozli qabul qilish ta'lim muassasasi ixtisosliklari bilan tanlovlar ixtisosliklari, sport turlarining soha bo'yicha mos kelishiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Sportni rivojlantirish vazirligi.

## Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’ sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 1999-yil 10-iyundagi **PF-2326-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari bo‘lgan o‘quvchilari oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa magistraturaga tegishli yo‘nalish va ixtisoslik bo‘yicha sinovlarsiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi.

## “Nihol” mukofoti sohiblari

### Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 9-avgustdagi **169-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh iste’dodlar uchun “Nihol” mukofoti to‘g‘risida” nizom.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** “Nihol” mukofoti sovrindorlari Madaniyat vazirligining taqdimnomalariga muvofiq Davlat komissiyasining qarori bilan madaniyat, san’at yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining mos ta’lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlarisiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadilar (*ansambl, jamoa sifatida ishtirok etganlar bundan mustasno*).

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Madaniyat vazirligi.

## Madaniyat vazirligining respublika ko‘rik-tanlovlari g‘oliblari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 28-noyabrdagi **PQ-4038-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Madaniyat vazirligining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlari g‘oliblarining bir nafardan yakka ijrochilari tegishli yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasasining bakalavriat bosqichiga qabul kvotasiga qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilinadi.

Ushbu respublika ko‘rik-tanlovlari:

– Xalq cholg‘ulari ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning iyun oyida;

– Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning oktabr oyida;

– Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2020-yilning aprel oyida o‘tkaziladi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Madaniyat vazirligi.

## “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotini ta‘sis etish to‘g‘risida” 2017-yil 21-noyabrdagi **PQ-3402-son** qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari bo‘lgan umumta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga, oliy o‘quv yurtlari talabalari yoki bakalavr darajasiga ega yoshlar esa magistratura bosqichiga tegishli yo‘nalish bo‘yicha kirish imtihonlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Bunda “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari bo‘lgan umumta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qaroriga asosan oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qo‘shimcha davlat grantlari asosida qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqi.

## “Tarbiyachi” respublika tanlovi g‘oliblari

### Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan har yili o‘tkaziladigan “Tarbiyachi” respublika tanlovi g‘oliblari Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta’lim muassasalarining mos ta’lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon*)siz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Maktabgacha ta’lim vazirligi.

## “Hamshira” respublika tanlovi g‘oliblari

### Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili o‘tkaziladigan “Hamshira” respublika tanlovi g‘oliblari Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta’lim muassasalarining mos ta’lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon*)siz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Sog‘liqni saqlash vazirligi.



## O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolari

### Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta‘lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to‘g‘risida” 2017-yil 14-noyabrdagi **914-son** qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga, ya‘ni O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tizimidagi sardorlarga, boshlang‘ich tashkilotlardagi yo‘nalish yetakchilariga, ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan fidoyi yoshlarga oliy ta‘lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish bo‘yicha tavsiyanomalar beriladi.

Bunda respublika komissiyasi tanlov natijalariga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bir nafardan (jami 14 nafar) eng munosib yoshlari tanlab olinadi.

Tavsiyanomaga ega O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolari Davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon*)siz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqi.

## Xalqaro olimpiadalar g'oliblari

### Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi **PQ-4306-son** qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

**Qo'llanishi:** Xalqaro olimpiadalarda 1-3-o'rinni egallagan abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga test sinovsiz va imtihonlarsiz **qo'shimcha davlat granti asosida** qabul qilinadi. Bular:

- Xalqaro matematika olimpiadasi – International Mathematical Olympiad (IMO);
- Xalqaro fizika olimpiadasi – International Physics Olympiad (IPhO);
- Xalqaro kimyo olimpiadasi – International Chemistry Olympiad (IChO);
- Xalqaro biologiya olimpiadasi – International Biology Olympiad (IBO);
- Xalqaro informatika olimpiadasi – International Olympiad in Informatics (IOI).

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Xalq ta'limi vazirligi.

## Prezident maktablari bitiruvchilari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Prezident maktablari bitiruvchilari davlat oliy ta‘lim tashkilotlariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘shimcha davlat granti asosida test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Prezident ta‘lim muassasalari agentligi.

## II. IMTIHONSIZ BAZAVIY TO‘LOV-KONTRAKT ASOSIDA TALABALIKKA TAVSIYA ETISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

### Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilari ixtisoslik yo‘nalishidan kelib chiqib davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining **kimyo, biologiya, fizika** va **axborot texnologiyalari** sohalari uchun kadrlar tayyorlaydigan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga umumiy belgilangan qabul parametrlaridan tashqari bazaviy to‘lov-kontrakt asosida test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Prezident ta‘lim muassasalari agentligi.

## Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining bitiruvchilari

**Huquqiy asosi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

**Qo'llanishi:** Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining bitiruvchilari ixtisoslik yo'nalishidan kelib chiqib davlat oliy ta'lim tashkilotlarining **tilshunoslik, adabiyot, pedagogika, tarjimonlik, jurnalistika** sohalari uchun kadrlar tayyorlaydigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy belgilangan qabul parametrlaridan tashqari bazaviy to'lov-kontrakt asosida test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonlarsiz o'qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Prezident ta'lim muassasalari agentligi.

## “Zakovat” intellektual o‘yini g‘oliblari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zakovat” intellektual o‘yini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 20-yanvardagi **PQ-96-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** “Zakovat” intellektual o‘yini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi tavsiyasiga ko‘ra intellektual o‘yinlarning respublika bosqichida g‘olib va sovrindor (1–3-o‘rinlar) bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari, shu jumladan Prezident ta’lim muassasalari o‘quvchilari belgilangan tartibda – o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim muassasalariga, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari – oliy ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim yo‘nalishlariga, oliy ta’lim muassasalari talabalari – ta’limning keyingi bosqichiga bazaviy to‘lov kontrakt asosida imtihon sinovlarisiz qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Xalq ta’limi vazirligi, Prezident ta’lim muassasalari agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

## Profilaktika inspektorlari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 30-noyabrdagi **PQ-23-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab ichki ishlar organlarida uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan, kasbiga fidoyi, tashabbuskor profilaktika (katta) inspektorlari Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda yurisprudensiya sohasida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan boshqa davlat oliy ta‘lim muassasalariga (*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi hamda Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bundan mustasno*) kirish imtihonlarisiz sirtqi ta‘lim shakliga o‘qishga qabul qilinadi.

Bunda tavsiyanoma berilgan profilaktika (katta) inspektorlari ro‘yxati Ichki ishlar vaziri tomonidan har yili iyun oyida test imtihonlari natijalari va komissiya xulosasi bilan birgalikda, tavsiya etilayotgan oliy ta‘lim muassasalari kesimida O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdim etiladi.

O‘qishga qabul qilish Davlat komissiyasining qarori bilan to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi hamda kontrakt mablag‘lari respublika budjeti mablag‘lari hisobidan Ichki ishlar vazirligi orqali to‘lab beriladi.

Tavsiyanomaga ega profilaktika (katta) inspektorlari oliy ta‘lim muassasalarining sirtqi ta‘lim shakliga qabul parametrlaridan tashqari o‘qishga qabul qilinadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Ichki ishlar vazirligi.

### **III. TEGISHLI FAN BO‘YICHA IMTIHONDAN OZOD ETILIB, MA‘LUM MIQDORDA BALL BERISHGA ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR**

#### **Respublika fan olimpiadalari g‘oliblari**

##### **Huquqiy asosi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi **PQ-4306-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi **562-son** qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Asosiy olimpiadalarning to‘rtinchi (*respublika*) bosqichida 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarga ixtisoslik fani bo‘yicha davlat oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil muddat davomida amal qiluvchi elektron sertifikatlar beriladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha mazkur sertifikatni olgan o‘quvchilarga ixtisoslik fan sifatida matematika fanidan davlat oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqi beriladi.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo‘lgan abituriyent tanlagan barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Xalq ta‘limi vazirligi.



## Chet tili sertifikatiga ega abituriyentlar

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi **395-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili fani kiritilgan barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga hujjat topshirgan va milliy yoki xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori bo‘lgan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi.

Bunda Toshkent davlat yuridik universiteti uchun IELTS sertifikatiga ega abituriyentlarda **writing** moduli **5,5 ball** yoki undan yuqori bo‘lishi lozim.

Imtiyoz amal qiluvchi sertifikatlar:

- ingliz tili – milliy sertifikat, IELTS, TOEFL IBT 72, Cambridge Assessment English FCE, Cambridge Assessment English Linguaskill;
- yapon tili – milliy sertifikat, JLPT № 2;
- nemis tili – milliy sertifikat, Goethe-Zertifikat, DSD, Test DAF;
- fransuz tili – milliy sertifikat, DELF, TCF4;
- boshqa tillar – milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo‘lgan abituriyent tanlagan barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Davlat test markazi, Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi.

*Izoh: Xalqaro sertifikatlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tekshiriladi.*

## **Musiqa, raqs, teatr, folklor, tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha respublika va xalqaro tanlovlar g‘oliblari**

### **Huquqiy asosi:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan tasdiqlangan “Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g‘oliblari bo‘lgan akademik litseylar, professional ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari o‘quvchilarini taqdirlash tartibi to‘g‘risida” nizom.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Madaniyat vazirligining musiqa, raqs, teatr, folklor, shuningdek Badiiy akademiyaning tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha respublika tanlovi (1-o‘rin) hamda mazkur yo‘nalishlardagi xalqaro tanlovlarning (1-3-o‘rinlar) g‘oliblariga tegishli oliy ta’lim muassasalarining kasbiy (ijodiy) imtihonlarida soha bo‘yicha eng yuqori ball belgilangan fandan maksimal ball olish imtiyozini beriladi.

Agar kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball bir nechta fanlardan belgilangan bo‘lsa, abituriyentga imtiyozli maksimal ball olish uchun fanlardan birini tanlash huquqi beriladi.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo‘lgan abituriyent tanlagan barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston badiiy akademiyasi.

## “Bolalar sport o‘yinlari”ning respublika bosqichi g‘oliblari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi **PF-5924-son** Farmoni.

**Qo‘llanishi:** “Bolalar sport o‘yinlari”ning jamoaviy o‘yin turlari bo‘yicha respublika bosqichi g‘oliblariga (1-o‘rin) oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarida soha bo‘yicha mutaxassislik fanidan maksimal ball olish huquqini beruvchi, uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat beriladi.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo‘lgan abituriyent tanlagan barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Sportni rivojlantirish vazirligi.

## Umumta'lim fanlaridan milliy sertifikatga ega abituriyentlar

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining “Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida” 2020-yil 12-oktabrdagi **646-son** qarori.

**Qo'llanishi:** Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholash test sinovlari natijasi bo'yicha eng yuqori ballning kamida 60 foizini to'plagan shaxslarga 3 yil muddat davomida amal qiluvchi davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Umumta'lim fanini (*chet tili bundan mustasno*) bilish darajasi to'g'risida davlat namunasidagi sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga sertifikatdagi o'zlashtirish foiziga mos ravishda oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (*proporsional*) ball beriladi.

Tegishli fandan beriladigan tabaqalashtirilgan ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Hozirga qadar umumta'lim fanlaridan sertifikatlash tizimi ona tili va adabiyot (*o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti*), matematika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha joriy etilgan bo'lib, 2022-2024-yillarda fizika, geografiya va tarix fanlaridan joriy etish belgilangan.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Davlat test markazi.

## IV. TO‘PLANGAN BALLGA NISBATAN QO‘SHIMCHA BALL BERISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

### “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qarori.

**Qo‘llanishi:** “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarida o‘zlari to‘plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda esa o‘zlari to‘plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz beriladi.

To‘plangan ballga nisbatan qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

## Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 16-fevraldagi **PQ-129-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarida o‘zlari to‘plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishda esa o‘zlari to‘plagan ballarning 15 foizi (*shu jumladan, ijodiy imtihonlar bo‘yicha*) miqdoridagi qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz beriladi.

To‘plangan ballga nisbatan qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi.

## V. QO‘SHIMCHA KVOTA DOIRASIDA TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

### Olis cho‘l hududlari aholisi

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy viloyatining olis cho‘l tumanlarida aholining turmush darajasini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 25-apreldagi **PQ-2925-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda test sinovlari natijalari bo‘yicha 68 va undan yuqori ballga ega bo‘lgan Navoiy viloyatining olis cho‘l tumanlari (*Konimex, Tomdi, Uchquduq*) da kamida uch yildan buyon istiqomat qilayotgan abituriyentlar keyinchalik mutaxassisligi bo‘yicha ushbu hududlardagi budjet tashkilotlarida tegishli viloyat hokimligi va oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida kamida 4 yil ishlab berish sharti bilan qo‘shimcha davlat granti asosida imtiyozli o‘qishga qabul qilinadi.

Bunda abituriyent oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga (*Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi oliy ta‘lim muassasalaridan biri bo‘lsa*) talabalikka tavsiya etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Navoiy viloyati hokimligi.

## Bobotog' hududidagi yoshlar

**Huquqiy asosi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2023-yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog' hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi **PQ-4995-son** qarori.

**Qo'llanishi:** 2021-2022-o'quv yilidan kelgusi uch o'quv yili davomida Uzun tumani Bobotog' hududidagi yoshlar uchun davlat grantlari bo'yicha kvotalarni oshirish limitlari doirasida Surxondaryo viloyatidagi pedagogika va tibbiyot yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha maxsus kvotalar ajratiladi.

Mazkur kvotalarning taqsimoti maqsadli kvota sifatida tegishli vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maxsus kvota bo'yicha o'qishga qabul qilingan yoshlar oliy ma'lumotga ega bo'lganidan so'ng, o'z hududida kamida 5 yil davomida mehnat qilishi zarur.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat test markazi, Surxondaryo viloyati hokimligi.



## Harbiy xizmatchilarning farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14-maydagi **PQ-3726-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi **462-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralarning xodimlari farzandlarining kvota asosida respublika oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarda harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta‘lim muassasalariga kirishda ajratilgan qo‘shimcha **besh foiz** va Milliy gvardiya xodimlari farzandlari **ikki foiz** qabul kvotalari doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun qo‘shimcha kvotalar vazirlik va idoralar kesimida taqsimlanadi va kvota doirasida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlar o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi. Bunda vazirlik va idoralar bo‘yicha o‘tish ballari turlicha bo‘lishi mumkin.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Milliy gvardiya.

## Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 26-fevraldagi **PQ-4212-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi **375-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlarining davlat oliy ta‘lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo‘mitasining oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda munosib hissa qo‘shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatda yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga o‘qishga kirish uchun qo‘shimcha **besh foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi (*tavsiyanoma asosida*).

Tavsiyanoma **kunduzgi** yoki **sirtqi** ta‘lim shakliga bir marta kirish uchun uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga beriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari uchun qo‘shimcha kvotalar oliy ta‘lim muassasalari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o‘zi tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasida (*OTMga Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari uchun qo‘shimcha kvota ajratilgan bo‘lsa*) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Ichki ishlar vazirligi.

## Bojxona organlari xodimlarining farzandlari

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 27-apreldagi **PF-122-son** Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi **PQ-3665-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** Bojxona organlarining xizmatdagi ofitserlari va serjantlar tarkibi xodimlarining farzandlariga o‘qishga kirish uchun respublika davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga ajratilgan umumiy davlat granti asosidagi qabul parametrlariga nisbatan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining **kunduzgi** ta‘lim shakliga alohida **ikki foizli** davlat granti asosidagi kvotalar ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Mazkur imtiyozdan foydalanish huquqi bojxona xizmatiga salmoqli hissa qo‘shgan, ish jarayonida ma‘lum bir natijalarga erishgan, bojxona organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning tegishli tavsiyanomalarga ega bo‘lgan farzandlariga beriladi.

Xodimlarning farzandlari uchun ajratilgan ikki foizli qabul parametrlari doirasida oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish Davlat bojxona qo‘mitasi raisining tavsiyanomasi asosida amalga oshiriladi hamda o‘rinlar Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari bo‘yicha to‘plangan ballardan kelib chiqib, abituriyent kirish imtihonlarining eng yuqori ballidan kamida o‘ttiz foizini to‘plagan taqdirda, ketma-ketlik tartibida taqsimlanadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Davlat bojxona qo‘mitasi.

## Nogironligi bo'lgan shaxslar

### Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 1-dekabrda **PF-5270-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi **417-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida” nizom.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 14-maydagi **PQ-4319-son** qarori.

**Qo'llanishi:** Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish imtihonlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo'lmagan ball to'plagan nogironligi (*I va II guruh*) bo'lgan shaxslarga qo'shimcha **ikki foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha kvotalar oliy ta'lim muassasalari va ta'lim shakllari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o'zi tanlagan barcha oliy ta'lim muassasalarida (*abituriyent tanlagan ta'lim shakli doirasida OTMga nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha kvota ajratilgan bo'lsa*) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Shuningdek, ular test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan **to'lovdan ozod etiladi**.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Sog'liqni saqlash vazirligi (*Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi*).

## Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 22-apreldagi **PQ-4296-son** qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi **PQ-4319-son** qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-avgustdagi **PQ-5216-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** “Mehribonlik” uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo‘lgan chin yetimlar, SOS – bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari, shuningdek, yigirma besh yoshgacha bo‘lgan vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun qo‘shimcha ravishda **bir foiz**gacha davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi.

Qo‘shimcha kvotalar oliy ta’lim muassasalari va ta’lim shakllari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o‘zi tanlagan barcha oliy ta’lim muassasalarida (*abituriyent tanlagan ta’lim shakli doirasida OTMga chin yetimlar uchun qo‘shimcha kvota ajratilgan bo‘lsa*) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Shuningdek, to‘liq davlat ta’minotidagi shaxslar test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan **to‘lovdan ozod etiladi**.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Xalq ta’limi vazirligi, Milliy gvardiya.

## Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 5-martdagi **PQ-5020-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 23-iyundagi **402-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tomonidan beriladigan tavsiyanomaga ega bo‘lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun qo‘shimcha **to‘rt foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Xotin-qizlar uchun qo‘shimcha kvotalar kunduzgi ta’lim shakli uchun hududlar kesimida taqsimlanadi va kvota doirasida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlar o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi. Bunda tavsiyanomaga ega xotin-qizlar qaysi hududdagi davlat oliy ta’lim muassasasiga topshirishidan qat’iy nazar o‘zining doimiy yashash hududi uchun ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi.

## Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-yanvardagi **3-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga pedagogika va moliya-iqtisod sohalaridagi oliy ta‘lim muassasalarida “5520100 – *Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)*” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha **sirtqi** ta‘lim shakli uchun qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun ajratiladigan qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakli bo‘yicha davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarida belgilanadi.

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega bo‘lgan hamda kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari belgilangan tartibda talabalikka tavsiya etiladi.

Tavsiyanoma asosida o‘qiyotgan talabalar o‘qishini boshqa bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga ko‘chirishga ruxsat berilmaydi.

Ular uchun sirtqi ta‘lim shakli doirasida o‘qitish **to‘lov-kontrakt** asosida tashkil etiladi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi.

## Harbiy qism qo‘mondonligi tavsiyanomasiga ega abituriyentlar

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2012-yil 31-maydagi **PQ-1765-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi **681-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qism qo‘mondonligining tavsiyanomalariga ega bo‘lgan fuqarolarni oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qismlar qo‘mondonligining tegishli tavsiyanomalariga ega bo‘lgan abituriyentlarni respublikaning oliy ta‘lim muassasalari (*oliy harbiy ta‘lim muassasalari bundan mustasno*) bakalavriatiga o‘qishga kirishi uchun tegishli o‘quv yiliga tasdiqlanadigan qabul parametrlaridan tashqari alohida qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi.

Alohida qabul ko‘rsatkichlari har bir oliy ta‘lim muassasasining bakalavriatiga (*har bir ta‘lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi) bo‘yicha*) o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarining **besh foizi** miqdorida belgilanadi.

Tavsiyanomaga ega abituriyentlar ular uchun belgilangan alohida qabul ko‘rsatkichlari doirasida, tanlagan **birinchi oliy ta‘lim muassasasi** bo‘yicha tanlovda ishtirok etadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.



## O‘rmonchilar va ularning farzandlari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 6-oktabrdagi **PQ-4850-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi raisining tavsiyanomasiga asosan o‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun oliy ta‘lim muassasalarining tegishli ta‘lim yo‘nalishlariga davlat granti asosida belgilangan qabul kvotasiga qo‘shimcha **20 foiz** ajratiladi.

Bunda o‘rmonchilar va ularning farzandlari ro‘yxatdan o‘tishda tanlagan ta‘lim yo‘nalishlariga o‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun qo‘shimcha qabul kvotalari ajratilgan bo‘lsa, dastlab qo‘shimcha qabul kvotalari doirasida tanlovda ishtirok etadi.

O‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun ajratiladigan qo‘shimcha qabul kvotalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi.

## **Besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlar**

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi **PF-87-son** Farmoni.

**Qo‘llanishi:** Xotin-qizlarga ta‘lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Bunda mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni oliy ta‘lim muassasalariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qaror loyihasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilib, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Qaror loyihasi muhokamasi 2022-yil 7-aprel kuni boshlanib, 22-aprel kuni yakunlangan.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi.

## **Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar**

**Huquqiy asosi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi **PF-6108-son** Farmoni.

**Qo'llanishi:** Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun bakalavriatning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha alohida maqsadli qabul parametrlari ajratiladi.

Bunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilarni pedagogik staji asosida sirtqi ta'lim shakli bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qaror loyihasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Qaror loyihasi muhokamasi 2022-yil 26-aprel kuni boshlanib, 11-may kuni yakunlangan.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Xalq ta'limi vazirligi.

## QO‘SHIMCHA IMTIYOZLAR

### **Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari**

**Huquqiy asosi:** Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi **705-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga test sinovlarisiz yakka tartibda suhbat o‘tkazish orqali bakalavrlarni tayyorlashning maxsus uch yillik dasturi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi.

Yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etish uchun yuridik texnikumlar bitiruvchilari tarkibiga adliya organlari va muassasalari xodimlari kiritilgan Maxsus komissiya tomonidan yo‘llanma olishi lozim.

Suhbat jarayonida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Yakka tartibdagi suhbatda belgilangan maksimal ballning 70 foizidan yuqori ball to‘plagan abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

## Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar

### Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi **PF-5812-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi **17-son** qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

**Qo‘llanishi:** 2022-2023-o‘quv yili qabulidan boshlab texnikumlarda o‘rta maxsus ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o‘z sohasiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta’lim muassasalarida 2-kursdan o‘qishini davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi.

Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlaganlar toifasiga texnikumdagi butun o‘qish davrida o‘quv semestrlari yakuniga ko‘ra o‘zlashtirish baholari “5 (a‘lo)” va “4 (yaxshi)”, biroq o‘zlashtirish baholarining kamida 50 foizi (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun kamida 85 foizi) “5 (a‘lo)” bo‘lgan bitiruvchilar kiradi.

Suhbat jarayonida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi 67 ball va undan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

**Mas‘ul vakolatli davlat organi:** Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

## Prezident grantiga da'vogar abituriyentlar

**Huquqiy asosi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 6-iyundagi **PQ-5172-son** qarori.

**Qo'llanishi:** Davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlari natijalariga ko'ra, ta'lim sohalari kesimida, ta'lim olish tilidan qat'i nazar, respublika bo'yicha eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning 200 nafari Prezident grantiga da'vogar bo'ladi. Bunda:

– Prezident granti uchun ajratilgan kvotaning ta'lim sohalari bo'yicha taqsimoti har yili O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

– muayyan ta'lim sohasi uchun ajratilgan Prezident granti kvotasi bo'yicha so'nggi o'rindagi abituriyent va u bilan bir xil ball to'plagan barcha fuqarolar Prezident grantiga da'vogar bo'ladi;

– oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishda qo'shimcha ball shaklida imtiyoz beriladigan toifadagi abituriyentlarning kirish imtihonlari natijalariga ko'ra to'plagan baliga qo'shib berilgan ballar Prezident grantiga da'vogarlarni aniqlashda hisobga olinmaydi;

– Prezident grantiga da'vogar bo'lgan abituriyentlar ro'yxati har yili kirish imtihonlari va tanlov to'liq yakunlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

– Prezident grantiga da'vogar bo'lgan abituriyentlar davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

**Mas'ul vakolatli davlat organi:** Davlat test markazi.

## Hokim yordamchilari

**Huquqiy asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-dekabrdaqi **PQ-31-son** qarori.

**Qo‘llanishi:** 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan hokim yordamchilari davlat oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyasiga ko‘ra davlat granti asosida sirtqi ta’lim shakliga suhbat asosida o‘qishga qabul qilinadi.

**Mas’ul vakolatli davlat organi:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari.

*Ma'lumotnoma*

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRISH  
UCHUN BERILADIGAN IMTIYOZLAR**

2022-2023-o'quv yili uchun

O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Davlat test markazi.  
100084, Toshkent shahri,  
Bog'ishamol ko'chasi, 12-uy.